

**Durdona BULTAKOVA,**  
O'zMU Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 2-kurs talabasi

*O'zbek tilshunosligi kafedrası professorı, f.f.d., Muhabbat Qurbonova taqrızı asosıda*

## THE STUDY OF COMMUNICATION ETIQUETTE AND SOME FEATURES IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation

In this article, the concept of communication etiquette and its study from a pragmatic and lingucultural aspect are covered. A number of social features of Uzbek communication behavior are deeply studied. Despite the fact that communication etiquette in Uzbek, Turkish, and English languages has many common aspects, studies on the fact that it is a situational-pragmatic system in the speech activity of the speakers of the language are studied and some of its features are revealed.

**Key words:** Communication, communication etiquette, stages of communication, reference, communicative script, communicative template.

## ИЗУЧЕНИЕ ЭТИКЕТА ОБЩЕНИЯ И НЕКОТОРЫХ ЕГО ОСОБЕННОСТЕЙ В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие этикета общения и его изучение с прагматического и лингвокультурологического аспекта. Глубоко изучен ряд социальных особенностей коммуникативного поведения узбеков. Несмотря на то, что этикет общения в узбекском, турецком и английском языках имеет много общего, изучаются исследования о том, что он представляет собой ситуативно-прагматическую систему в речевой деятельности носителей языка и выявляются некоторые ее особенности.

**Ключевые слова:** Общение, этикет общения, этапы общения, справочник, коммуникативный сценарий, коммуникативный шаблон.

## JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MULOQOT ETIKETINING O'RGANILISHI VA AYRIM XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada muloqot etiketi tushunchasi va uning pragmatik va lingvokulturologik aspektida o'rganilishi yoritilgan. O'zbek muloqot xulqining qator ijtimoiy xususiyatlari chuqur tadqiq qilinadi. O'zbek, turk va ingliz tillaridagi muloqot etiketi qator umumiy jihatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, albatta, til egalarining nutqiy faoliyatida situativ-pragmatik sistema ekanligi xususidagi tadqiqotlar o'rganilib, ayrim xususiyatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Muloqot, muloqot etiketi, muloqotning bosqichlari, refensiya, kommunikativ ssenariy, kommunikativ andoza.

**Kirish.** Turli fanlar doirasida ilmiy paradigmalarni almashinuvi tilshunoslikda ham yangi ilmiy yo'nalishlar va tadqiqotlarga darcha ochdi. Qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur tilshunoslik til va til uchun xizmat qilayotganini, til subyektdan ajralgan holda tadqiq qilish yo'nalishi o'zini oqlamadi. Tilshunoslikda ilmiy tadqiqotning yangi oqimi bo'lgan antroposentrik paradigma tilni ichdan tadqiq qilish, tilning jamiyatdagi amaliy ahamiyati, tilni undan foydalanuvchisi bilan o'rganishga yo'l ochib berdi. Tilshunoslikning yangi sohaları bo'lgan pragmalıngvıstıka, lingvokulturologiya, psixolingvıstıka, etnolingvıstıka, sotsiolıngvıstıka kabilar tilning jamiyatda turgan o'rni, til egalarining olamni bilish va anglashining ular nutqiy faoliyatida namoyon bo'lishi, muloqotning turli ijtimoiy, psixologik, pragmatik omillarga bog'liq holda namoyon bo'lishi kabi masalalarni chuqur tadqiq etib, tilshunoslikning o'rganilmagan yangi qirralarini ilm-fanga ma'lum qilmoqda. Xususan, biz tadqiqot obyektimiz sifatida o'rganishni maqsad qilib qo'yganimiz muloqot va muloqot etiketi o'zbek tilshunoslari tomonidan ancha paytdan beri tadqiq qilinib kelingan tushuncha hisoblanadi. Xususan, Jahon tilshunosligida T.A.Deyk, Kagan, Formanovskaya, Arutyunova kabi olimlar muloqot jarayonini turli aspektida o'rganib, tilshunoslik uchun qimmatli ilmiy manbalarni taqdim qilishdi. O'zbek tilshunosligida Sharifa Iskandarova, Siddiqjon Mo'minov, Gulya Ibragimovnalarni muloqot va u bilan bog'liq bo'lgan muloqot xulqi masalalari ilmiy asosda yoritib o'z tadqiqotlarini olib borishdi. Avvalambor, muloqot etiketi terminiga to'xtalib o'tishimiz lozim. Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda ushbu tushunchani qo'llash borasida qat'iy hukm mavjud emas. Sh.Iskandarova ushbu tushunchani nutq odatlari, Siddiqjon Mo'minov esa muloqot xulqi, Sh.Usmonovada esa muloqot etiketi shaklda uchrashini ko'rishimiz mumkin. Jahon tilshunosligida esa nutqiy etiket yoki muloqot etiketi deb nomlaganligini ko'rishimiz mumkin. Ustoz Shoira Usmonovaga ergashgan holda muloqot etiketi deb qo'llashni lozim topdik. Chunki ushbu tushuncha biz ifodalamoqchi bo'lgan tushunchani keng ma'noda va to'liq ifodalay oladi. Keyingi o'rinlarda ME tarzida keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sh.Iskandarovaning 1989-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi bo'lgan "O'zbek nutq odatining muloqot shakllari" ga to'xtalib o'tmoqchimiz. Olima nutqiy odat masalasi o'zbek tilshunosligida birinchi marta yoritilayotganligi va tadqiqot pragmatik, sotsiolıngvıstık aspektida amalga oshirishini alohida ta'kidlab o'tadi. "A.A.Akishina, B.M.Alpatov, N.D.Arutyunova, B.N.Golovin, B.E.Galdin, Y.D.Desheriyev, B.G.Kostomarov, N.F. Mixeyeva, T.U.Naumova, F.Pap, L.P.Stupin, K.S.Ignatyev, O.B.Sirotnina, N.M. Firsova, N.I. Formanoviyskaya singari qator tilshunoslarni nutqiy odat masalalari bilan alohida shug'ullanib, ma'lum xalqlar uchun xos bo'lgan muloqotning milliy belgilarini shu xalqlar doirasida, shuningdek, boshqa xalqlar bilan qiyosiy jihatdan o'rganadilar. Ular nemis, yapon, ingliz, ispan, fransuz, rus tillarini chet tili sifatida o'rganishda, nutqiy odat birliklarini turli yo'nalishlarda - sotsiolıngvıstık, paralingvıstık, pragmalıngvıstık aspektlarda tekshirishning mohiyatini ochib berdilar".[1] Ushbu tadqiqot ishida nutqiy odat birliklarining ma'no guruhlarini ajratilib, ularning tabiati yoritilgan. Jahon tilshunosligida pragmalıngvıstıkaning birliklaridan bo'lgan nutqiy akt guruhlarini aynan olim ta'kidlagan nutqiy odat vaziyatlari bilan tengdir. Nutqiy odat vaziyatlari ma'lum jamiyat tomonidan ularning ongiga andozadek o'rnashishi va o'zgaruvchan va o'zgarmas bo'lishi, "Salomlashish", "Minnatdorchilik bildirish", "Tanishish", "Iltimos", "Xayrlashish", "Uzr so'rash", "Qutlash" kabi guruhlar doirasida namoyon bo'lishini aytib o'tadilar. Shu o'rinda ma'lumot berish joizki, nutqiy odat guruhlarini, yoki nutqiy akt guruhlarini xalqning ijtimoiy, tarixiy, psixologik, etnologik, lingvokulturologik xususiyatlarini ham namoyon qiladi. Yuan Huang o'zining "Pragmatika" kitobida bu masalaga to'xtatib, uning

turli xususiyatlarini yoritib beradi va shu o'rinda ushbu nutqiy guruhlar hamma xalqlarda ham bir xil tarzda mavjud bo'lavermaligini aytib o'tadi. Masalan, afrikaning ba'zi xalqlarida bir-biriga ishonch yo'qligi uchun "va'da berish" nutqiy aktining bo'sh qolishi haqida ma'lumot beradi. Sh.Iskandarova nutqiy odatni sotsiologik aspektida o'rganib, uning yosh, jins, mansublik, murojaat shakllari masalalariga atroflicha to'xtaladi. Xususan, ayollar va erkaklar nutqidagi farqlar, o'zbek tilidagi sen va siz murojaati xususida o'zining qimmatli fikrlarini beradi. Shuningdek, nutqiy odatlarning namoyon bo'lishida nafaqat lisoniy vositalar, balki paralingvistika vositalari muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, buni misollar bilan atroflicha dalillaydi. "Salomlashish vaziyatida Yevropa xalqlari bir-birining o'ng qo'llarini siqadilar. Hindistonda salomlashish belgisi sifatida ikki kaftni yuz oldiga juftlashtiradilar, eskimoslar esa salomlashish uchun bir-birlarining burunlarini ishqalashadi. Qadimgi Xitoyda esa yuqori tabaqa vakillari uchrashganda har biri o'z o'ng qo'li bilan qo'lini siqqan ekan".[2] O'zbek xalqida ham "Salomlashish" nutqiy vaziyatining amalga oshishi ham lisoniy, ham nolisoniy vositalar bilan amalga oshadi: "Assalomu alaykum" deb, o'ng qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish millatimizga xos bo'lgan hurmat-ehtirom, odob kabi axloqiy tushunchalarimiz bilan bog'lanib ketadi.

Sh.Iskandarova Ojegovning yuqoridagi fikrlarini davom ettirib quyidagilarni qayd etadi: "Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig'indisi bo'lsa, nutqiy odat ma'lum millat vakillarining nutqida atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar shakllangan bo'ladi. Bundan tashqari nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun shaxs o'z fikrlarini to'g'ri, ifodali va ta'sirchan holda yetkazish mahoratiga - san'atiga ega bo'lmog'i talab qilinsa, nutqiy odat birliklarini o'rinli qo'llash uchun o'zaro muloqot ishtirokchilarining ma'lum mahoratga ega bo'lishi muhim emas".[3] Nutq madaniyati til birliklarini chuqur o'zlashtirish, ulardan mahorat bilan foydalanish, ma'lum nutqiy malakaga erishilganlikdir, ME esa butun til egalarining barchasiga xos bo'ladi. Ular ongida kommunikativ andoza sifatida mavjudlik kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Muloqotning tasnifi va nutqiy faoliyatning bosqichlari turli tizimli tillarda bir xil shaklda namoyon bo'ladi. Lekin muloqot etiketining nutqiy vaziyatlarda namoyon bo'lishida esa turfa xil rang-barangliklar ko'zga tashlanadi. Muloqot etiketida kommunikatsiya, kommunikativ andoza, kommunikativ ssenariy, situativ-pragmatik sistema, nutqiy akt guruhlari kabilar eng muhim tushunchalar hisoblanib, tadqiqotimizning mohiyati chuqurroq yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoning turli tillari qiyosi misolida, xususan, rus va arab tili, ingliz va fransuz, kareys va yapon, nemis va xitoy va boshqa tillar qiyosi misolida ME o'rganib, ilm-fan uchun muhim xulosalar berilgan. Muloqot etiketini o'zbek, ingliz va turk tillari misolida o'rganish xususidagi qiyosiy tadqiqot ishi hali amalga oshirilmagan. Lekin Kichik tadqiqot ishlari, jumladan, maqolalar, tezislar, turli internet ma'lumotlari nashr qilingan. Muloqot etiketining nazariy va ilmiy asoslari yaratilgan. Biroq bu xususidagi qiyosiy tadqiqotlar esa sanoqli.

**Tahlil va natijalar.** Kommunikantlarning makon va zamonga ko'ra muloqotning namoyon bo'lishini ikkiga ajratadi: 1) yuzma-yuz 2) masofali. Tarixdan bizga ma'lumki, insoniyat ma'lum bir davrlarda bir biri bilan muloqot jarayoniga kirish uchun uzoq masofalar bosib o'tishga majbur bo'lishgan va yuzma-yuz ko'rishgan holda kommunikatsiyani amalga oshirishgan. Texnika-texnologiyaning taraqqiyoti bashariyatga mazafadan turib aloqa-aralashuv jarayoniga kirish mumkinligini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda ommalashib borayotgan Facebook, Twitter, Instagram, Telegram yoki Zoom platformasi va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda adresant va adresatlar muloqotni amalga oshirmoqda. Ilmiy ishimiz uchun turli tizimli tillarda ME da yuqorida tasniflangan kontakt va distant muloqotda qay darajada namoyon bo'ladi va ularning xususiyatlari, farqlar va o'xshashlik kesimini ham tadqiq qilish bugungi globalashayotgan dunyo va uning ilm-fani uchun juda ham ahamiyatlidir. Muloqotning keyingi tasnifi vositachilik qiluvchi biror "apparat"ning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra: bevosita va bivosita muloqot. Albatta, ME da bu ikki muloqot turida ham qator o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Til birliklarining shakllanishiga ko'ra: og'zaki va yozma shaklda namoyon bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi pozitsiyasiga ko'ra: dialogik va monologik muloqot. Muloqot ishtirokchilarining miqdoriga ko'ra: shaxslararo va ommaviy muloqot. Muloqot shart-sharoiti va kommunikantlarning o'zaro munosabatiga ko'ra: rasmiy va norasmiy muloqot kabillardir. Professor Siddiqjon Mo'minov ham ushbu tasniflarga qo'shilgan holda har biriga alohida izoh beradi. E'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan shunday jihatlardan biri bu muloqot jarayoniga ta'sir etuvchi omillardir. "Ma'lumki har qanday muloqotda so'zlovchi va tinchlovchi zaruriy uzv (tarkibiy qism)lar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bu muammoga bag'ishlangan ko'pgina adabiyotlardagi kabi bizning ishimizda ham so'zlovchi, ya'ni xabar bezovchi, gapiruvchi adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs-tinglovchi adresat, kommunikant deb, muloqotga bivosita (botinani) ishtirok etuvchi yoki muloqotga bivosita ta'sir etuvchi omillar esa ta'sir birliklari deb yuritiladi"[4]. Olim muloqot jarayoniga ta'sir qiluvchi birliklarni ikkiga ajratadi:

Ichki ta'sir birliklari. Bunga muloqot ishtirokchilari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar: millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari, ta'sir birliklariga yaqinlik darajasiga kabilar kiradi.

Tashqi ta'sir birlari. Ushbu tasnifga muloqotga bivosita ta'sir etuvchi omillar: muloqot vaqti, vaziyat-holati, ijtimoiy holati kabilar mansub bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, muloqot jarayoniga adresant va adresatlarning nafaqat ijtimoiy holati, xususan, ularning psixologik, lingvokulturologik, pragmatik jihatlar ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy ishimizning keyingi boblarida ushbu masalalar atroflicha yoritilishi bois ushbu bobda alohida to'xtalmaslikni lozim topdik. Shuningdek, S. Mo'minov muloqot xulqining namoyon bo'lishida adresant va adresat faoliyatining bosqichlarini tasniflaydi va har birining alohida tadqiqini taqdim qiladi.

Shuningdek, professor muloqot xulqini psixologik aspektida ham tadqiq qilib, muloqot va munosabat, adresantning fiziologik holatining muloqot jarayoniga ta'siri, nutqning hasrat tili va uning adresant fiziologiyasiga ta'siri, adresantning real hamsuhbatga hasrati, adresantning xayoliy hamsuhbatga hasrati kabi masalalar xususidagi ma'lumotlarni berib o'tadi. Muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishi, ayollar va erkaklar leksikasidagi va ularning paralingvistik vositalaridagi farqlar kabilar ham o'z ichiga oladi. Olim shunday xulosalarni beradi: "Inson ruhiyati, millati va yashash joyi, ma'naviyati va madaniyati, e'tiqodi va urf-odatlar, yoshi va jinsi, kasb-hunari va ijtimoiy o'rni kabi qator sotsial umumlashmalarni o'zida zuhur etadigan muloqot xulqi muammosi insonning o'zi kabi rang-barang va serqirra bo'lib, dunyo olimlari - sotsiolog, psixolog, etnograf, madaniyatshunos, tilshunos va boshqa fan sohasi mutaxassislari e'tiborini birday o'ziga jalb jalb etmoqda. Zero, bu muammo bilan shug'allanish barcha dunyoviy ilmlarning asosiy tadqiqot mavzusi - insonning o'zligini anglashi kabi muhim va ahamiyatlidir"[5] Ko'rinadiki, o'zbek muloqot xulqini ham ijtimoiy-lisoniy, ham psixologik-pragmatik aspektida tadqiq qilib, tilshunosligimiz uchun muhim ilmiy xulosalarni beradi.

Shuni e'tiborga olgan holda o'zbek, turk va ingliz tillaridagi ME ham qator umumiy jihatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, albatta, til egalarining nutqiy faoliyatida situativ-pragmatik sistema ham turlicha bo'ladi. Gollamdiylik tilshunos olim T.A.Deyk nutqiy muloqotning namoyon bo'lishida makon-zamonning muhim ekanligini ta'kidligini ta'kidlab shunday

deydi. “Gavjum ko‘chada men notanish kishi bilan salomlashmagan bo‘lar edim, lekin kimsasiz tog‘da yoki orolda yolg‘izoyoq so‘qmoqda notanish kimsani uchratib qolsam, salom-alik qilishim turgan gap”.[6] Kommunikativ vaziyatning qay tarzda amalga oshayotganligida uning makon va zamon omili muhim ahamiyatga ega. Misol uchun o‘zbek maktablarida o‘qituvchi xonaga kirishi bilan o‘quvchilar joylaridan turgan holda “Assalomu alaykum” deb salom berishadi. Dunyoning boshqa ko‘pgina mamlakatlarida esa o‘qituvchi xonaga kirganida o‘quvchilar salomlashish va hurmat ma‘nosini berish uchun o‘rinlaridan turishadi xolos. Adresant nutqiy faoliyatining ilk bosqichi bo‘lgan salomlashish jarayoni imakonga ko‘ra farqlanmoqda. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida nutqiy muloqotning sistemaviy-informativ tabiatga ega ekanligi masalasi ham aytib o‘tilgan va quyidagi xulosalarning nazasiy asoslari beriladi: “Situativ-pragmatik sistema tarkibidagi komponentlar qanchalik rang-barang bo‘lmasin, ular umumiy xususiyatlarga - situativ-pragmatik sistema markazida mujassamlashgan informativ qiymatni yangi jihatlar bilan to‘ldirish, uni takomillashtirishga xizmat qiladi”[7].

Yana bir tilshunos olim Kaganning “Мир общения” kitobida esa muloqot olami tushunchasi, shuningdek, bu kommunikatsiya olamida adresant va adresantning jonli yoki jonsiz bo‘lishi kabilar ilmiy asoslangan, Xususan, muloqot olamida real hamsuhbat, illyuzor hamsuhbat, xayoliy hamsuhbat, xayoliy hamsuhbat (badiiy personaj) bilan muloqot nutqiy faoliyatning xarakterini belgilashi, shunga ko‘ra bu muloqot turlari o‘zaro sistemaviy-paradigmalar hosil qilishi kabi ilmiy xulosalari bizning ham tadqiqotimiz uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi aniq. Boisi, ME da ham muloqotning barcha turlari va uning ijtimoiy xususiyatlari o‘zining takrori yo‘q xususiyatlari bilan maydonga chiqadi va turli tillarning o‘ziga xos jozibasini ham belgilab beradi. Turli tizimli tillar doirasida ME ni ilmiy asosda o‘rgangan Kalilina Galina Segeyevna “Turli tizimli tillarda nutqiy etiketi” nomli nomzodlik dissertatsiyasi bizning ilmiy ishimiz uchun ham juda ham muhimdir. Ushbu nomzodlik dissertatsiyada rus va arab tillaridagi muloqot etiketi lingvokulturologik va sotsio-pragmatik aspektda tahlil qilingan. Asosiy e‘tibor nutqiy vaziyatlarda boshqacha qilib aytganda nutqiy akt guruhlari doirasida o‘rganiladi. Turli tizimga mansub tillar bo‘lishiga qaramasdan muloqotning har qanday turida qator umumiy o‘xshashliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, arab tilida salomlashish uchun “Assalamu alaykum” so‘zidan foydalaniladi. Bu salomlashish elementi adresantning adresatga sihat-salomatlik tilayotganligini bildiradi. Rus tilida qo‘llaniladigan “Здравствуйте” so‘zi tarixan kelib chiqishi bo‘lishi здорова ya‘ni sog‘lik so‘zidan kelib chiqqan. Arab xalqi somiy xalqlariga mansub bo‘lgan va tarixan ko‘chib yurishgan, turli jang-u jadallar ishtirokchisi bo‘lishga majbur bo‘lishgan. Slavyan xalqlariga mansub bo‘lgan ruslar esa qadimdan o‘troq yashashgan, ayni tarixiy silsilani, ya‘ni jang-u jadallar, urishlar, hayotga qolish uchun kurashishga majbur bo‘lishgan. Shu jihatdan kelib chiqqan holda har ikki tilda ham salomat tilash ma‘nosini bildiruvchi so‘zlarning nutqiy faoliyatning salomlashish bosqichida faol ishtirok etishi, ilk ko‘rishgan kommunikatorning kommunikantga salomatlik tilagi bilan boshlanishi ikki xalqda ham salomatlik hayotdagi barcha narsadan ustungini, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak sog‘liq konseptida yaqqol ko‘zga tashlanadigan o‘xshashlikda kesishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. “Arablar nutqiy etiketidagi iboralar aniq diniy xususiyatga egaligi bilan rang-baranglik kasb ketadi. Arab jamiyatida xatti-harakatlarning axloq-odob qoidalarini bilan ajralmas holda amalga oshadi. Ularning nutqida irodali taqvodor odamning o‘ziga xos xususiyati ko‘rinadi. Arab xalqi payg‘ambar Muhammadning ko‘rsatmalariga rioya qilishga harakat qilishadi”.[8] “Muloqot odob-axloqining milliy o‘ziga xosligi nihoyatda yorqin, chunki tilning o‘ziga xos xususiyatlari marosimlar, urd-odatlar, xulq-atvorda qabul qilingan va qabul qilinmagan, ijtimoiy odob-axloq qoidalarida ruxsat berilgan va ta‘qiqlangan o‘lchovlarning xususiyatlariga asoslanadi. ME ga ega bo‘lish ishonchni qozonishga yordam beradi, ishonch va hurmatni mustahkamlaydi. Nutq odob-axloq qoidalarini bilish, so‘zlovchilarga ishonchli va qulay his qilish imkonini beradi. Muloqotda ME qoidalariga qat‘iy rioya qilish mijozlar va sheriklarda tashkilot haqida ijobiy taassurot qoldiradi... Har bir xalq og‘zaki xulq-atvor qoidalarining o‘ziga xos tizimini yaratadi. Etiket axloq bilan chambarchas bog‘liqdir”[9]. ME qoidalarini bilish bugungi kun uchun juda ham zarur, turli millatlar turli maqsadlarda bir oraga kelishlariga to‘g‘ri kelayotgan bugungi kun jamiyatida milliy va boshqa xalqlar ME sini bilish insonning katta yutug‘i bo‘ladi va unga dunyo sari eshik ochadi.

**Xulosa va takliflar.** Tilshunoslikda ilmiy paradigmalar almashinuvi tilni undan foydalanuvchisi bilan tadqiq qilish, tilning ichki strukturasi mohiyatan yondashish, tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirishga sabab bo‘ldi. XX asrdan boshlab ME tadqiqoti tilshunoslikning tadqiqot masalasiga aylandi. O‘zbek va jahon tilshunosligida bir til va turli tillar doirasidagi qiyosiy va chog‘ishtirma tadqiqotlar amalga oshirilib, ijtimoiy, psixologik, lisoniy aspektda tadqiq qilindi. Ik marotaba Farmanovskaya, Kagan, Arutyunova, Ojegov kabilar tomonidan tadqiq qilingan ME, o‘zbek tilshunosligida S. Mo‘minov, Sh.Iskandarova doktorlik dissertatsiyalarida ijtimoiy, lisoniy va psixologik aspektda o‘rganilgan va tilshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy asoslangan ma‘lumotlar bilan ta‘minlanganlar.

#### ADABIYOTLAR

1. Sh.Iskanadorova. O‘zbek nutq odatlarining muloqot shakllari. Dok.diss. Avtoreferat. 1993. b.3.4.
2. Aleksandrov A. Пожмек друг другу руки. Новая строительная газета. 1992. b.16
3. Iskandarova Sh. O‘zbek nutqiy odatlarining muloqot shakllari. Dok.diss. Avtoreferat. 1993. b.7.
4. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Dok.diss. Monografiya. 2001. b.16.
5. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Dok.diss. Monografiya. 2001. b.200.
6. Deyk T.A. Van. Язык.Познание.Коммуникация. - Moskva. Progress. 1989. - b.24.
7. Toirova G.I. O‘zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik. Phd. Diss.; - Toshkent.2017. b. 20.
8. Kalilina G.S. Turli tizimli tillarda nutqiy etiket. Dok.Diss.; - Moskva. 2021. b.87.
9. Teaching Speech etiquette in English Lessons. 2021. Macmillan